



**“MAYMUN YETAKLAGAN ODAM” HIKOYASI OBRAZLARI**  
**TAHLILI**

***Yulduz Olimova***

*Xalqaro innovatsion universitet talabasi*

*Ilmiy rahbar: Nurali Murodillayev, XIU o‘qituvchisi*

**Annotatsiya:** Nazar Eshonqul haqida adabiyotshunoslikda turlicha qarashlar mavjudligi sir emas. Bu adibning shaxsiyati va o‘ziga xos tabiat bilan bog‘liq bo‘lsa kerak. Ijodini kuzatsangiz, davr talablariga “moslashish”, unvon-u martabalar ta’masida laganbardorlik kabi illatlar ko‘zga tashlanmaydi. Va eng muhimi, uning qahramonlari ham aynan shu kayfiyatdagi kimsalardir. Muallif realizmda va modernizmida ham kuchini sinab ko‘rdi, ikkalasida ham o‘quvchi ishonchini oqladi.

**Kalit so‘zlar:** komsomol, yolg‘izlik, bosmachi, surat, qadriyat, Pampeya.

**Abstract:** It is no secret that there are different opinions about Nazar Eshanqul in literary studies. This is probably related to the writer's personality and unique nature. If you observe his work, you won't notice vices such as "adaptation" to the requirements of the time, and greed for titles and ranks. And most importantly, his characters are also in this mood. The author tried his hand at both realism and modernism, and earned the reader's trust in both.

**Key words:** Komsomol, loneliness, press, photo, value, Pampea.

Nazar Eshonqul o‘zbek adabiyotiga o‘zining o‘zgacha yo‘nalishi va o‘z olami bilan kirib keldi. Uning asarlarini tushunish, o‘qish va tahlil qilish uchun hikoyadagi har bir detalga, voqelikka hattoki qo‘sishimchalarga ham boshqa rakursdan qarash kerak. Har bir so‘z o‘zida sirli tilsimni va boshqa ma’noni olib yuradi.

“Maymun yetaklagan odam” Nazar Eshonqulning adabiyot oshnolari orasida mashhur hikoyalaridan biridir. Asar sarlavhasiyoq odamni o‘yga to‘ldiradi. Odam maymunni yetaklayaptimi yoki maymun odamnimi?! Har kim dunyoni o‘z qarichi bilan o‘lchaydi deganlaridek, hikoya nomini ham har kim o‘zicha tahlil qiladi. Kimdir

odam maymunni yetaklayapti degan fikrda sobit tursa, yana kimdir buning aksini aytadi. Asar boshida ta'riflangan chol obraziga to'xtaladigan bo'lsak, "sharti ketib, parti qolgan" ya'ni hech nimasiz, yo'qotadigan narsasi yo'q, ruhsiz bir jasad kabi ta'riflarni eshitamiz. Bu ruhsiz jasadning jahldor ma'budlarga o'xshatilganligi ham bejiz emasdi. Go'yo u egnidagi elliginchi yillarning andozasida tikilgan ancha salobatli kiteliga o'xshab o'z zamonasining eng zo'ri edi, hozir esa eski o'rindig'i kabi ("hayot chashmasining bir chetidagi unitilgan toshdek") ko'rimsiz buyumga aylandi.

Asarni bizga hikoya qilib berayotgan talaba aslida o'z hayot so'qmog'ini topa olmagan sargardon kabi edi. Hayotning chigal va murakkab, tushunarsiz, jumboqli yo'lkalari bizni shu qadar ojizlashtiradiki, buning qanday bo'lganini bilmay ham qolamiz. Katta hayot o'yinida yutqazib qo'yganini sezgan chol atrofdagi odamlarga adovat bilan tikilardi, buni ko'rgan talabaning yuragi g'ash tortib ko'ngli behuzur bo'ladi, kayfiyati buziladi. Aslida salom-alikdan nariga o'tmagan bu ikki dunyo odamlarida qanday adovat bo'lishi mumkin?! Balki, ikkisi ham bir-biriga qaraganda o'zini ko'rgandir. Biri ko'zları porlab turgan, hali yuzida hayot barqib turgan yoshlikni, biri osilgan qovoqlar orasidagi hayotning tun kabi vahimali va tund nighohlarini o'zida aks etgan yutqazgan odam qiyofasini ko'rgandir.

Nazar Eshonqul hikoyalaridagi yana bir element diqqatimni tortdi. Ya'ni, "badbo'y hid". Cholning avvalgi kasbi tufayli olingan hashamatli uyining har burchagidan chirkin va badbo'y hid kelardi. Yozuvchi bu hid "qor ostida qolib qarovsizlikdan xazonlikka yuz tutgan gulzordan kelardi", – degandi. Xuddi cholning qachonlardir dengiz mavjlaridek bir-biriga bas qilib tug'yon urgan nekbin tuyg'ulari yillar qirg'og'iga urilib yo'qlikka yuz tutgani kabi.

Cholga ovqat olib kirgan yigitcha unga e'tiborsiz nazar tashlab, hafsalasizlik bilan bo'yoq bo'lgan qo'llari va ko'kargan tishlariga termularkan negadir unda ya'na jahldor ma'bud qiyofasini ko'radi. U asabiy va ro'dapo cholning rassom ekanligiga ishonmasdi. Chol axlatni ko'rsatgandek jirkanish bilan ko'rsatgan suratlar oldiga borar ekan, u chol haqida eshitganlarini xayolidan o'tkazdi. Chol yigirmanchi yillarda komsomol bo'lgan, o'ttizinchi yillarda yangi hayot uchun bosmachilarga



qarshi kurashgan, mas’ul vazifalarda ishlab pensiyaga chiqqan. Cholni osmon-u falaklarga ko’targan yigirmanchi yillar shamoli uni ko‘p narsalardan mahrum qildi. Oilaviy baxt, qadriyat, ishonch, sevgi, otalik va eng muhumi o‘zlikdan. U buni o‘zining rasmlarida yaqqol tasvirlagan deyish to‘g‘ri bo‘lsa, 1926-yilda chizilgan “Maymun yetaklagan odam” tasvirida o‘zida ishonch, qat’iyatli, matonatli, ruhan va jismonan kuchli odam tasviri tushirilgan. Suratdagi bo‘yoqlar yorqin va aniq tasvirlangan. Har bir insonning ichidag ikkita “yaxshi” va “yomon” meni uni har qayoqqa yetaklaydi. Suratdagi ”men” maymun obrazida tasvirlangan va u maymunni quyuq o‘rmondan yetaklab chiqardi. Unga solingan kishan ham tarang tortilgan xuddi hozir uzilib ketadigandek. Vaziyat shu darajaga bordi – kishan uzildi.

U mansabga ko‘tarildi, ammo inkor etib ham muhokama etib ham bo‘lmaydigan buyruqlar, kim uchundir yomon ishlar, ayolining xastalik tufayli vafot etishi, yakka-yu yolg‘iz o‘g‘lining ichkilik va ayollarga bo‘lgan mayli va qamalishi uning suratlarida aks etdi. So‘nggi o‘n yillikda tasvirlangan suratlar “Pampeyani eslatardi, sirli maxluqlar, ma’suma qizlar, yalong‘och ayollar, to‘q ranglar va tushunarsiz chizgilar hayotining tushunarsiz va ma’nosiz kechayotganidan dalolat berardi.

Chol so‘nggi suratini chizar ekan unda hech nimaga qiziqish qolmagandi. U hayotning rang-barang bo‘yoqlarini ko‘rmas, ancha yillar avval o‘zini o‘rab olgan qobig‘idan chiqmasdi. Oradan bir qancha vaqt o‘tgach, u shu qobig‘i va yolg‘izlik sari o‘z Tursoriyasi tomon yo‘l oldi. Undan “Maymun yetaklagan odam” so‘nggi surati qoldi. Endi bu suratda uni ancha yillar avval tark etgan bo‘yoqlar ( tuyg‘ular) odamning yuzidagi umidsizlik fonida qaytdi va maymun ularning barchasini qorong‘u o‘rmon sari yetaklab ketdi. Bu surat aslida 40 yil ichida hayot tomonidan inson qalbiga chizilgan edi. Chol esa uni shunchaki dokaga ko‘chirdi.

Xulosa qilib aytganda, asar syujetida ekspozitsiya, tugun, voqealar rivoji, konflikt, kulminatsiya kabilar yaqqol o‘z ifodasini topgan. Choldagi maxfiylikning ochila borishi, uning talaba yigit bilan bo‘lgan suhbatida ochiqlangan dunyoqarashi va keltirgan fikrlari asar kulminatsiyasi bo‘la oladi. Asardagi cholning o‘limi, uning umrining oxirida chizgan rasmi voqealarning butunlay tushunarli bo‘lishi, sirlilikning



yo‘qolishiga xizmat qilgani uchun asarning yechimi hisoblanadi. Hikoyada keltirilgan sarlavha , portret, peyzaj, detall, qistirma epizod kabilar asar kompozitsiyasini yaxlitlovchi muhim omil vazifasini bajargan. Ayniqsa, cholning uyining tasviri chizilgan holatlar hikoyadagi o‘zgacha kayfiyat, undagi kirlik, qoralikni ta’kidlashga xizmat qilganini ko‘rshimiz mumkin.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:**

1. A.Norbekova “Nazar Eshonqul hikoyalari uslubi. “Maymun yetaklagan odam” hikoyasi misolida” ilmiy maqola.
2. A.Ulug‘ov “Adabiyotshunoslik nazariyasi” darslik Toshkent – 2017.
3. Dilmurod Quronov “Adabiyotshunoslikka kirish” Akademik nashr Toshkent 2018
4. Nazar Eshonqul “Maymun yetaklagan odam” Toshkent “Yangi asr avlod” – 2004.
4. Nazar Eshonqulning “Maymun yetaklagan odam” hikoyasi tahlili” ilmiy maqola.